


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1 380,1 mln. AQSH dollarni tashkil etgan, jumladan 558,4 mln. AQSH dollarini-eksport, 821,7 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -263,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollar)




So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

**2023- yil yanvar-dekabr oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(mln. AQSH dollar va foizda)




2022- yil yanvar-dekabr



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2023- yil yanvar-dekabr



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ga, MDH davlatlari 100,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 116,2 % ga ko‘paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 95,6 % ni va shundan MDH davlatlari 100,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlarga 80,5 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 118,2 % ga ko‘paygan bo‘lib, undan MDH davlatlari 100,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 127,9 % ga ko‘paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollarri)

	yanvar-dekabr		O'sish sur'ati, % da
	2022- yil	2023- yil	

Tashqi savdo aylanmasi	1 279,7	1 380,1	107,8
-------------------------------	----------------	----------------	--------------

shu jumladan:

MDH davlatlari	686,1	690,1	100,6
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	593,6	690,0	116,2
------------------	-------	-------	-------

Eksport	584,4	558,4	95,6
----------------	--------------	--------------	-------------

shu jumladan:

MDH davlatlari	438,6	441,0	100,5
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	145,8	117,4	80,5
------------------	-------	-------	------

Import	695,3	821,7	118,2
---------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:

MDH davlatlari	247,5	249,1	100,7
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	447,8	572,6	127,9
------------------	-------	-------	-------

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinnarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.



Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm mln.AQSH.dollr		2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	
Eksport tarkibi	584,4	558,4	95,6
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	105,9	86,7	81,9
Ichimliklar va tamaki	1,4	3,1	2,2 m.
Xom ashyo yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	8,9	8,6	96,2
Mineral yoqilg‘i, moylash moylari va shunga o‘xhash materiallar	1,1	3,7	3,2 m.
Kimyoviy moddalar va shunga o‘xhash mahsulotlar	15,4	5,2	33,6
Sanoat mahsulotlari	302,0	276,9	91,7
Mashinalar va transport uskunlari	10,2	18,2	177,9
Turli xil tayyor mahsulotlar	121,1	136,2	112,5
Xizmatlar	18,4	8,7	47,4
Boshqalar	-	11,2	-
Import tarkibi	695,3	821,7	118,2
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	111,0	152,9	137,7
Xom ashyo yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	39,0	43,0	110,3
Mineral yoqilg‘i, moylash moylari va shunga o‘xhash materiallar	20,8	18,6	89,1
Hayvonlar va o‘simgilik moylari, yog‘lar va mumlar	29,2	17,8	60,9
Kimyoviy moddalar va shunga o‘xhash mahsulotlar	90,7	91,1	100,4
Sanoat mahsulotlari	161,8	196,2	121,3
Mashinalar va transport uskunlari	223,1	251,2	112,6
Turli xil tayyor mahsulotlar	19,7	20,4	103,8
Boshqalar	-	30,4	-

2023- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo‘yicha tahlil qilinganda, (2022- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalarini 2,3 martaga. Ichimliklar va tamaki 2,2 m. ga, Ichimliklar va tamaki 2,2 m. ga ko‘paygani kuzatildi.

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**

(ming AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	409 432,9	297 439,2	111 993,7
Xitoy	270 706,9	39 923,3	230 783,7
Qozog‘iston	112 524,3	44 615	67 909,4
Turkiya	101 830,6	41 256,8	60 573,9
Qirg‘iziston	83 631,2	62 989,2	20 642
Germaniya	35 444,4	8 990,5	26 453,8
Belorussiya	34 676,6	2 522,4	32 154,2
Polsha	24 704,3	11 433	13 271,4
Litva	20 426,1	5 345,9	15 080,3
Koreya Respublikasi	20 048,9	3 327,9	16 721,1
Malayziya	14 982,7	-	14 982,7
Turkmaniston	14 063,6	8 364,5	5 699,1
Hindiston	12 205,6	678,4	11 527,2
Ukraina	11 074,7	6 706,5	4 368,2
Frantsiya	10 317,3	67,8	10 249,6
Tojikiston	10 316,7	7 001,8	3 314,9
Pokiston	9 849,4	7 458,4	2 391
Eron	8 301,6	4 709,4	3 592,2
Indoneziya	6 539,7	-	6 539,7



Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 81 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,8 %), Xitoy Xalq Respublikasida (22,9 %), Qozog‘istonda (7,2 %), Turkiyada (5,7 %), Qirg‘iziston (4,3 %), Germaniya (3,3 %) va Belorussiya (2,9 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar


Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	32,8	109,4
Xitoy	22,9	116,8
Qozog‘iston	7,2	88,0
Turkiya	5,7	77,4
Qirg‘iziston	4,3	71,4
Germaniya	3,3	127,2
Belorussiya	2,9	114,1
Polsha	2,4	133,4
Hindiston	2,4	2,7 m.
Koreya Respublikasi	1,9	133,3
Litva	1,3	80,6
Malayziya	1,1	102,9

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Italiya	1,1	2,4 m.
Eron	1,1	181,0
Frantsiya	0,9	126,3
Tojikiston	0,9	122,3
Ukraina	0,8	101,2
Yaponiya	0,7	3,3 m.
Turkmaniston	0,7	64,6
Avstriya	0,6	2,4 m.
Latviya	0,4	126,3
Avg'aniston	0,3	79,5

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari
hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)**

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Ichimliklar va tamaki



■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar

■ Boshqalar



Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2023-yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 49,6 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 24,4 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 15,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 8 711,0 ming.AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 47,4 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari hajmi shahar va tumanlar kesmida (ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		O'sish sur'ati, % da
	2022- yil	2023- yil	

Viloyat jami	584 435,8	558 407,4	95,5
--------------	-----------	-----------	------

Namangan sh.

Mingbuloq	196 671,6	197 183,8	100,3
-----------	-----------	-----------	-------

Kosonsoy

Namangan t.	4 017,7	1 935,2	48,2
-------------	---------	---------	------

Norin	57 212,3	68 909,5	120,4
-------	----------	----------	-------

Pop	27 715,4	25 074,9	90,5
-----	----------	----------	------

To'raqo'rg'on	5 543,6	12 316,3	2,2 m.
---------------	---------	----------	--------

Uychi	18 828,5	16 142,0	85,7
-------	----------	----------	------

Uchqo'rg'on	103 449,3	126 468,3	122,3
-------------	-----------	-----------	-------

Chortoq	36 565,7	38 945,1	106,5
---------	----------	----------	-------


Chust	40 866,3	25 847,8	63,2
-------	----------	----------	------

Yangiqo'rg'on	3 088,1	1 481,6	48,0
---------------	---------	---------	------

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom-ashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘srimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 308,6 mln.AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 52,5 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 20,5 % ga kamaydi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat eksportida



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 88,7 % tashkil qildi.

Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston, Polsha, Turkiya, va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2023-yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari hajmi shahar va tumanlar kesmida

(ming AQSH dollarri)

	Yanvar-dekabr		O'sish sur'ati, %da
	2022-yil	2023-yil	
Viloyat jami	695 233,4	821 731,4	118,2
Namangan sh.	296 042,1	416 614,4	140,7
Mingbuloq	8 223,4	10 772,1	131,0
Kosonsoy	49 930,4	32 882,9	65,9
Namangan t.	39 016,0	36 351,8	93,2
Norin	39 345,2	59 227,2	150,5
Pop	23 595,2	20 373,6	86,3
To'raqo'rg'on	41 829,5	62 133,0	148,5
Uychi	50 022,4	49 177,6	98,3
Uchqo'rg'on	13 925,2	12 129,7	87,1
Chortoq	50 728,8	53 659,4	105,8
Chust	59 016,9	47 671,6	80,8
Yangiqo'rg'on	23 558,4	20 733,0	88,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 30,6 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 23,9 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 18,6 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi esa 11,1 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi

■ Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallар

■ Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar


■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar

■ Sanoat mahsulotlari

■ Mashinalar va transport uskulnali

■ Turli xil tayyor mahsulotlar

■ Boshqalar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatga 76 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Belarusiya va Hindiston kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 614 493,0 ming AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,8 % ni tashkil qiladi.

